Аннотация: В данной статье рассмотрена методика совершенствования преподавания раздела “Углеводороды” в 10-х классах общеобразовательных школ с использованием информационно-коммуникационных технологий. В исследовании проанализировано влияние виртуальных лабораторий, мультимедийных средств и интерактивных методов на эффективность обучения. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что использование ИКТ способствует повышению уровня знаний учащихся и развитию самостоятельного мышления. Установлено, что визуальное моделирование органических соединений облегчает усвоение сложных понятий. В ходе исследования разработана инновационная методика обучения на основе современных педагогических технологий. Статистический анализ подтвердил более высокую эффективность занятий, организованных с применением ИКТ, по сравнению с традиционными методами. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для цифровизации химического образования.

Ключевые слова: Углеводороды, органическая химия, информационно-коммуникационные технологии, современные педагогические технологии, виртуальная лаборатория, мультимедийные средства, интерактивные методы, 3D молекулярное моделирование, электронное обучение, цифровая образовательная среда, химическое образование, инновационный подход, эффективность обучения, визуальное моделирование, самостоятельное мышление, органические соединения, электронная система оценивания, методика преподавания химии.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish ta'lim sifatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Kimyo fani murakkab nazariy tushunchalar, abstrakt jarayonlar va tajribaviy bilimlarga boyligi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Shu sababli kimyo fanini, xususan organik kimyoning “Uglevodorodlar” bo'limini an'anaviy usullar asosida o'qitish o'quvchilarda mavzuni to'liq tasavvur qilish va chuqur o'zlashtirishda ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi ^[1].

“Uglevodorodlar” bo'limi organik kimyoning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, alkanlar, alkenlar, alkinlar hamda aromatik uglevodorodlarning tuzilishi, xossalari va o'zaro reaksiyalarini o'z ichiga oladi. Mazkur mavzular molekularning fazoviy tuzilishi, kimyoviy bog'lanishlar va reaksiyalar mexanizmlarini tasavvur qilishni talab etadi. Shu jihatdan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish organik moddalar tuzilishini vizual modellashtirish, virtual laboratoriyalar tashkil etish va interaktiv ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi ^[3; 56-b].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta'lim jarayonida multimedia vositalari, elektron ta'lim platformalari, 3D modellashtirish va virtual laboratoriyalarni keng joriy etish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini bermoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar ta'lim samaradorligini oshirib, o'quvchilarning bilim darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi ^[4; 135-b].

Tadqiqotning ob'ekti umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti esa 10-sinfda “Uglevodorodlar” bo'limini zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida o'qitish metodikasidan iborat.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinflarida “Uglevodorodlar” bo'limini zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- “Uglevodorodlar” bo'limini o'qitishga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining kimyo ta'limidagi imkoniyatlarini o'rganish;
- virtual laboratoriyalar va multimedia vositalarining didaktik ahamiyatini aniqlash;
- organik kimyo mavzularini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- tajriba-sinov ishlari orqali zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning natijadorligini aniqlash;
- “Uglevodorodlar” bo'limini o'qitish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitishni takomillashtirishga hamda organik kimyo mavzularini samarali o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kimyo ta'limini zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish masalasi bugungi kunda pedagogika va metodika sohasidagi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, organik kimyoning murakkab mavzularini, jumladan "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy olimlardan R. Mayer multimedia ta'lim nazariyasida vizual va audio axborotlarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning murakkab tushunchalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishini ilmiy asoslab bergan. Olimning fikricha, multimedia vositalari abstrakt ilmiy tushunchalarni vizual shaklda ifodalash orqali bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi. J. Bruner va D. Jonassen tadqiqotlarida esa interaktiv ta'lim muhiti o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvini rivojlantirishdagi muhim omil sifatida tavsiyalar berilgan [10; 78-b].

Shuningdek, UNESCO va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli ta'lim muhiti va virtual laboratoriyalar tabiiy fanlarni o'qitishda samarali vosita sifatida e'tirof etilgan. Mazkur tadqiqotlarda virtual laboratoriyalar yordamida kimyoviy tajribalarni xavfsiz, iqtisodiy va interaktiv shaklda tashkil etish mumkinligi ta'kidlangan. Ayniqsa, organik kimyo mavzularini 3D modellashtirish orqali o'qitish o'quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishi ko'rsatib o'tilgan [3; 56-b.], [4; 135-b.].

Mahalliy olimlardan N. Azizxo'jayeva, R. Ishmuhamedov, N. Saidahmedov va H. Omonovlarning ilmiy ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashini rivojlantirishi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam berishi qayd etilgan [5; 112-b].

Kimyo ta'limiga oid tadqiqotlarda H. Omonov va T. Xolmurodov organik kimyo mavzularini o'qitishda ko'rgazmalilik, tajribaviy yondashuv hamda elektron resurslardan foydalanishning metodik asoslarini tahlil qilganlar. Tadqiqotchilar kimyo fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlari va vizual vositalarning ahamiyati yuqori ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq mavjud ilmiy ishlarda "Uglevodorodlar" bo'limini aynan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida kompleks o'qitish metodikasi yetarli darajada yoritilmagan [5; 118-b].

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishda virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari, 3D molekulyar modellashtirish va interaktiv metodlarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi ilmiy-metodik jihatdan asoslandi. Tadqiqot davomida zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning o'quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlashi va organik kimyoga bo'lgan qiziqishiga ta'siri tajriba-sinov ishlari orqali tahlil qilindi. Shuningdek, elektron ta'lim resurslari asosida "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishning samarali metodikasi ishlab chiqildi va uning amaliy samaradorligi statistik jihatdan asoslab berildi [9; 301-b.].

Natijada ushbu tadqiqot kimyo ta'limini raqamlashtirish, organik kimyo mavzularini innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'yicha muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinflarida "Uglevodorodlar" bo'limini zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov, qiyosiy taqqoslash, statistik tahlil, kuzatish va pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida organik kimyo mavzularini o'qitishda virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari, 3D molekulyar modellashtirish va interaktiv metodlarning o'quvchilar bilimiga ta'siri ilmiy-metodik jihatdan o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini ta'lim jarayonini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kimyo ta'limiga integratsiyalash hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqotda qiyosiy taqqoslash usulidan foydalanilib, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar bilan an'anaviy metodlar asosidagi darslarning samaradorligi o'zaro solishtirildi. Ushbu usul orqali o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, bilim darajasi va fanga bo'lgan qiziqishidagi o'zgarishlar tahlil qilindi [1], [3].

Mazkur tadqiqotda "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) vositalaridan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, qiyosiy-taqqoslash metodi, tahlil va sintez metodi, shuningdek pedagogik kuzatish va tajriba-sinov metodi asosiy metodologik yondashuvlar sifatida tanlab olindi.

Qiyosiy-taqqoslash metodi

Tadqiqotning ushbu bosqichida "Uglevodorodlar" bo'limini an'anaviy ta'lim usullari asosida o'qitish jarayoni hamda AKT vositalariga asoslangan zamonaviy o'qitish texnologiyalari o'zaro qiyosiy tahlil qilindi. An'anaviy



yondashuvda o'qituvchi markaziy subyekt sifatida og'zaki tushuntirish va darslik materiallariga tayansa, AKT asosidagi yondashuvda esa o'quvchi faol subyekt sifatida multimedia, 3D modellashirish, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar orqali bilimlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi [7; 91-b.].

Shu jarayonda AKT vositalarining didaktik imkoniyatlari tizimli ravishda o'rganildi va quyidagi 1- jadvalda umumlashtirildi. O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirishi, mavzuni chuqurroq anglashiga va amaliy ko'nikmalarni samarali shakllantirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.


1- jadval: "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishda qo'llaniladigan AKT vositalari

AKT vositasi	Qo'llanish sohasi	Ta'limdagi ahamiyati
Multimedia taqdimotlari	Nazariy mavzular	Vizual tushuntirishni kuchaytiradi
Virtual laboratoriya	Tajribalar	Xavfsiz va interaktiv muhit yaratadi
3D molekulyar modellar	Molekula tuzilishi	Fazoviy tafakkurni rivojlantiradi
Elektron test tizimlari	Nazorat va baholash	Tezkor va aniq baholashni ta'minlaydi
Video darslar	Mustaqil ta'lim	Mavzuni qayta o'rganish imkonini beradi
Interaktiv platformalar	Masofaviy ta'lim	O'quv faolligini oshiradi


O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirishi, mavzuni chuqurroq anglashiga va amaliy ko'nikmalarni samarali shakllantirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tahlil va sintez metodi asosida AKT vositalarining har biri alohida ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida multimedia taqdimotlari, 3D molekulyar modellar, virtual laboratoriyalar va elektron test tizimlarining didaktik imkoniyatlari o'rganildi [6; 45-b.].

So'ngra olingan natijalar umumlashtirilib, integratsiyalashgan yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy asosda sintez qilindi.



1-rasm: Uglevodorodlarning 3D molekulyar modeli



2-rasm: Virtual laboratoriyada organik kimyo tajribasi

Pedagogik kuzatish va tajriba-sinov metodi jarayonida tajriba va nazorat guruhlarida pedagogik kuzatishlar olib borildi. O'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, mavzuni o'zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash va amaliy topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. AKT vositalari qo'llanilgan guruhlarda o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishi va faolligi sezilarli darajada oshgani qayd etildi.

Virtual laboratoriyalar va multimedia vositalari orqali "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishda virtual laboratoriyalar va multimedia texnologiyalari muhim didaktik ahamiyatga ega bo'lib, ular murakkab kimyoviy jarayonlarni vizual va interaktiv shaklda o'rganish imkonini beradi.

Mazkur rasmda 1- rasmda "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida yaratilgan uch o'lchamli molekulyar modellar aks ettirilgan. Unda metan (CH_4), etan (C_2H_6), etilen (C_2H_4) hamda benzol (C_6H_6) molekularining fazoviy tuzilishi vizual ko'rinishda tasvirlangan bo'lib, bu organik birikmalarning geometrik tuzilishi va kimyoviy bog'lanishlarini chuqur anglash imkonini beradi.

3D modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish organik kimyo mavzularini o'qitishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Chunki uglevodorodlarning fazoviy tuzilishi, valent burchaklari, atomlarning joylashuvi hamda bog'larning tabiati an'anaviy ikki o'lchamli tasvirlarda to'liq ifodalanmaydi. Virtual modellar esa o'quvchilarda molekularning stereokimyoviy tuzilishi haqida ilmiy tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi [8; 214-b.].

Ushbu 2-rasmda "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishda virtual laboratoriya texnologiyalaridan foydalanish jarayoni tasvirlangan. Virtual laboratoriyalar zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, organik kimyo tajribalarini interaktiv va xavfsiz muhitda amalga oshirish imkonini beradi.

2-rasmda etanning brom bilan reaksiyasi virtual dastur asosida modellashtirilgan bo'lib, reaksiyaning borishi, reaktivlarning o'zaro ta'siri hamda hosil bo'layotgan mahsulotlar bosqichma-bosqich ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda, reaksiyaning molekulyar modeli va kimyoviy tenglamasi bir vaqtning o'zida aks ettirilgani nazariy bilimlarni amaliy jarayon bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Virtual laboratoriya texnologiyalari o'quvchilarda eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish, ilmiy kuzatish olib borish va tahliliy fikrlashni rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ular real laboratoriya sharoitida bajarilishi murakkab yoki xavfli bo'lgan tajribalarni xavfsiz muhitda takroriy bajarish imkonini yaratadi [3; 61-b.].

Mazkur texnologiyalar yordamida "Uglevodorodlar" bo'limiga oid reaksiyalarni vizual modellashtirish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga, kimyoviy jarayonlarning mohiyatini ilmiy asosda tushunishiga hamda organik kimyo faniga bo'lgan qiziqishining ortishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan virtual laboratoriyalar kimyo ta'limini raqamlashtirishning samarali vositalaridan biri sifatida muhim ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinflarida "Uglevodorodlar" bo'limini zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitish samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda o'quvchilarning bilim darajasi, mavzuni o'zlashtirish ko'rsatkichlari, mustaqil fikrlash kompetensiyasi hamda organik kimyo faniga bo'lgan qiziqishidagi o'zgarishlar o'rganildi [2].

Tajriba-sinov ishlari Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi umumta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqotda 10-"A" sinfi tajriba guruhi, 10-"B" sinfi esa nazorat guruhi sifatida belgilandi.

Tajriba guruhida o'quv jarayoni zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil etilib, darslarda multimedia taqdimotlari, virtual laboratoriyalar, 3D molekulyar modellar, elektron ta'lim resurslari hamda interaktiv pedagogik metodlardan samarali foydalanildi. Nazorat guruhida esa dars mashg'ulotlari an'anaviy o'qitish metodlari asosida olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari boshlanishidan avval har ikki guruh o'quvchilarining dastlabki bilim darajasi test topshiriqlari, yozma nazorat ishlari hamda og'zaki suhbatlar orqali aniqlanib, natijalar statistik jihatdan tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar tajriba va nazorat guruhlarida o'quvchilarining boshlang'ich bilim ko'rsatkichlari deyarli teng ekanligini ko'rsatdi. Bu esa tajriba-sinov natijalarining obyektivligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida tajriba guruhida qo'llanilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishi, mustaqil ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi hamda kimyo faniga bo'lgan qiziqishining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani kuzatildi [6; 49-b.].

1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki o'zlashtirish natijalari

№	Baholash ko'rsatkichi	Tajriba guruhi 10-"A" (%)	Nazorat guruhi 10-"B" (%)	Izoh
1	"5" baho olgan o'quvchilar ulushi	24	24	Yuqori darajadagi o'zlashtirish ko'rsatkichi
2	"4" baho olgan o'quvchilar ulushi	40	40	Yaxshi o'zlashtirish darajasi



No	Baholash ko'rsatkichi	Tajriba guruhi 10-"A" (%)	Nazorat guruhi 10-"B" (%)	Izoh
3	"3" baho olgan o'quvchilar ulushi	36	36	Qoniqarli o'zlashtirish darajasi
4	Umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi	64	64	"4" va "5" baholar yig'indisi asosida
5	Sifat ko'rsatkichi	24	24	Yuqori sifatli o'zlashtirish ("5" baholar)
6	O'rtacha baho ko'rsatkichi	3,88	3,88	Matematik o'rtacha qiymat
7	Guruhlararo farq	Minimal	Minimal	Dastlabki bilim darajalari deyarli teng

Tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldin 10-"A" tajriba guruhi hamda 10-"B" nazorat guruhi o'quvchilarining bilim darajalari diagnostik tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, har ikkala guruhda ham o'zlashtirish ko'rsatkichlari bir xil darajada ekanligi aniqlandi. Jumladan, "5" baho olgan o'quvchilar ulushi 24 %, "4" baho olganlar 40 % hamda "3" baho olganlar 36 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi har ikkala guruhda 64 % ni tashkil qilgani tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich bilim darajasi o'zaro teng ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holat pedagogik tajriba-sinov ishlarini obyektiv tashkil etish hamda keyingi bosqichlarda qo'llanilgan metodikaning samaradorligini aniqlash uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tajriba jarayonida 10-"A" sinfida "Uglevodorodlar" bo'limiga oid mavzular elektron taqdimotlar, animatsion modellar, virtual laboratoriya tajribalari va interaktiv topshiriqlar yordamida o'qitildi. O'quvchilar molekullarning fazoviy tuzilishini 3D modellar orqali o'rgandilar hamda organik reaksiyalarni virtual laboratoriya muhitida kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Nazorat guruhida esa mavzular an'anaviy doska va darslik asosida tushuntirildi.

Tajriba yakunida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash maqsadida qayta test, yozma nazorat ishlari va og'zaki savol-javoblar o'tkazildi. Yakuniy natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy o'zlashtirish natijalari**

No	Baholash ko'rsatkichi	Tajriba guruhi 10-"A" (%)	Nazorat guruhi 10-"B" (%)	Farq (%)	Izoh
1	"5" baho olgan o'quvchilar ulushi	52	32	+20	Yuqori darajadagi o'zlashtirish tajriba guruhida sezilarli oshgan
2	"4" baho olgan o'quvchilar ulushi	36	44	-8	Nazorat guruhida o'rtacha yuqori natija ustun
3	"3" baho olgan o'quvchilar ulushi	12	24	-12	Tajriba guruhida past o'zlashtirish kamaygan
4	Umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi	88	76	+12	"4" va "5" baholar yig'indisi asosida
5	Sifat ko'rsatkichi	52	32	+20	Yuqori sifatli o'zlashtirish darajasi
6	O'rtacha baho ko'rsatkichi	4,40	4,08	+0,32	Tajriba guruhida o'rtacha natija yuqori
7	Pedagogik samaradorlik darajasi	Yuqori	O'rtacha	-	AKT asosidagi metodika samaradorligi kuzatildi

Tajriba-sinov ishlari yakunida o'quvchilarning bilim darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, 10-"A" tajriba guruhida "5" baho olgan o'quvchilar ulushi 52 % ni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan 20 % ga yuqori natija qayd etildi. Shu bilan birga, "3" baho olgan o'quvchilar sonining 12 % gacha kamaygani o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirganligini ko'rsatadi.

Nazorat guruhi natijalarida ham ma'lum ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, tajriba guruhidagi o'sish ko'rsatkichlari ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Jumladan, umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi tajriba guruhida 88 % ni tashkil etib, nazorat guruhidan 12 % ga yuqori bo'ldi.

Tajriba natijalarini yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida statistik metodlardan foydalanildi. O'quvchilarning o'rtacha ball ko'rsatkichlari hisoblanib, tajriba va nazorat guruhlar o'rtasidagi farq quyidagi 2 – rasmda qiyosiy tahlil qilindi.




O'RTACHA BALL KO'RSATGICHLARI

Sinf	Dastlabki natija	Yakuniy natija	O'sish
10-A	3.88	4.42	+0.54
10-B	3.86	4.02	+0.16



3-rasm: Tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha ball ko'rsatkichlari tahlili



1-diagramma: Tajriba va nazorat sinflarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Diagramma natijalari zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda yuqori baho olgan o'quvchilar soni ortganligini, past baho olgan o'quvchilar soni esa kamayganligini ko'rsatadi. Bu esa virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari va interaktiv metodlarning "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishdagi pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Tadqiqot davomida kuzatish metodidan ham foydalanildi [4; 142-b.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari "Uglevodorodlar" bo'limini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishi, kimyoviy jarayonlarni vizual anglashlari hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Xususan, 3D modellashtirish, virtual laboratoriyalar, multimedia taqdimotlari va elektron test tizimlari darslarning samaradorligini oshirdi. Tajriba-sinov natijalarida tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori natija qayd etdi.

Shu bilan birga, ayrim maktablarda texnik jihozlarning yetarli emasligi, internet sifati pastligi hamda o'qituvchilarning AKT kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Taklif va tavsiyalar

1. Ta'lim muassasalarini zamonaviy AKT vositalari bilan ta'minlash;
2. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish;
3. Virtual laboratoriya va 3D modellashtirish dasturlarini darslarga keng joriy etish;
4. Elektron ta'lim resurslari va interaktiv platformalarni rivojlantirish;
5. Video darslar va elektron testlardan samarali foydalanish;
6. Blended learning (aralash ta'lim) modelini amaliyotga tatbiq etish.

Umuman olganda, AKT vositalari "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarning ilmiy-tahliliy tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi [3], [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga oid farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2023–2025). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish bo'yicha o'quv dasturi va metodik tavsiyalar. Toshkent.
3. UNESCO. (2023). Digital learning and ICT in education: Global trends and best practices. Paris: UNESCO Publishing.
4. OECD. (2023). Education at a Glance 2023: ICT integration in teaching and learning. Paris: OECD Publishing.
5. Mamatqulov, A. (2020). Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
6. Ismoilov, B., & Karimov, S. (2022). Kimyo ta'limida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. Pedagogik ta'lim jurnali, 4(2), 45–52.
7. Egamberdiyev, X., & Karimov, M. (2022). Kimyoviy algoritmlarning nazariy asoslari. Toshkent: Yosh avlod matbaa.
8. Brown, T. L., LeMay, H. E., Bursten, B. E., Murphy, C., Woodward, P. (2018). Chemistry: The Central Science. Pearson Education.
9. Zumdahl, S. S., & Zumdahl, S. A. (2014). Chemistry. Cengage Learning.
10. Mayer, R. E. (2021). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.